



**XORAZM VILOYATI AHOLISINING KUNDALIK TURMUSH TARZI VA
IJTIMOIY HAYOTI (1945-1985-YILLAR) MAVZUSINING TARIXSHUNOSLIGI.**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.027>

Quranboyeva Sevinchoy Maqsud qizi,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1945-1985-yillarda Xorazm viloyati aholisining ijtimoiy hayoti va kundalik turmush tarzining tarixshunoslikda yoritilish darajasi tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu sohaning ijtimoiy ahamiyati, rivojlanish bosqichlari va davlat siyosatidagi o‘rni umumrespublika miqyosida o‘rganilgani ko‘rsatib beriladi. Shu bilan birga mavjud tadqiqotlarda hududiy yondashuv, xususan Xorazm viloyati misolida maishiy xizmat ko‘rsatish tizimining yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagani asoslanadi. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar hamda mustaqillik yillarida chop etilgan asarlarda esa aholi turmush sharoiti, ijtimoiy infratuzilma, maishiy xizmat ko‘rsatish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va madaniy muassasalarning rivojlanishi masalalari qanday talqin etilganligi ochib beriladi. Maqola mazkur tarixshunoslikdagi bo‘shliqni ko‘rsatish va mavzuning ilmiy dolzarbligini asoslashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixshunoslik, sovet davri, kundalik hayot, maishiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy infratuzilma, hududiy yondashuv, ta‘lim, sog‘liqni saqlash.

Abstract. This article analyzes the level of coverage of the social life and daily life of the population of the Khorezm region in historiography in 1945-1985. The scientific literature shows that the social significance of this sector, its stages of development, and its role in state policy have been studied on a nationwide scale. At the same time, existing studies have not taken a regional approach, in particular, the lack of a sufficiently comprehensive study of the household service system in the case of the Khorezm region. It reveals how the issues of the living conditions of the population, social infrastructure, household services, education, healthcare, and the development of cultural institutions were interpreted in scientific studies created during the Soviet era and works published during the years of independence. This article aims to show the gap in historical science and substantiate the scientific relevance of the topic.

Key words: Historiography, Soviet era, everyday life, household services, social infrastructure, territorial approach, education, healthcare.

Аннотация. В данной статье анализируется уровень освещения социальной жизни и быта населения Хорезмской области в историографии в период 1945-1985

годов. Научная литература показывает, что социальное значение этого региона б этапы его развития и роль в государственной политике изучались в национальном масштабе. В то же время утверждается что существующие исследования не учитывают региональный подход в частности, отсутствует достаточно всестороннее исследование системы бытового обслуживания в случае Хорезмской области. Раскрывается, как интерпретировались вопросы условий жизни населения, социальной инфраструктуры, обеспечения бытовых услуг, образования, здравоохранения и развития культурных учреждений в научных исследованиях, созданных в советскую эпоху, и работах, опубликованных в годы независимости. Цель статьи- выявить этот пробел в историографии и обосновать научную значимость данной темы.

Ключевые слова. Историография, советская эпоха, повседневная жизнь, бытовые услуги, социальная инфраструктура, территориальный подход, образование, здравоохранение.

KIRISH.O‘zbekiston tarixi fanida XX asrning ikkinchi yarmi xususan 1945-1985-yillar oralig‘idagi ijtimoiy hayot, aholining kundalik turmushi, madaniy-maishiy sharoitlarini o‘rganish masalalari muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur davr Xorazm viloyati hayotida ham tub iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar davri bo‘lib, u aholining turmush darajasi, mehnat sharoiti, ijtimoiy faoliyati, madaniy ehtiyojlari va maishiy hayotida sezilarli iz qoldirgan. Mavzu tarixshunosligining maqsadi- Xorazm viloyati aholisi turmush tarziga oid masalalar tarixini o‘rgangan olimlar, nashrlar, ilmiy tadqiqotlar tahlili orqali bu sohadagi ilmiy izlanishlar bosqichlarini aniqlash hamda mavjud manbalar asosida ularning tahliliy ahamiyatini ko‘rsatishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mavzu tarixshunosligiga oid bo‘lgan manbalarni uch guruhga bo‘lishni lozim topdik. Birinchi guruhga-Sovet davrida nashr qilingan adabiyotlar va dissertatsiyalar. Ikkinchi guruhga -mustaqilik yillarida nashr qilingan adabiyotlar va tadqiqotlar. Uchinchi guruhga -xorijda nashr qilingan maqola va adabiyotlarni kiritish mumkin.

METODLAR. Ushbu mavzuni yoritishda ilmiy tadqiqotning bir qancha uslublari, jumladan, ma‘lumotlarning tahlili, qiyosiy tahlil, sintez, ma‘lumotlarning xolisligi kabi prinsiplardan foydalanildi.

MUHOKAMA. Birinchi guruhga oid adabiyotlarni sovet hokimiyati yillarida yaratilgan tadqiqotlar tashkil qilib ularning ko‘pchiligida qishloq va shahar aholisining hayotiga kommunistik partiyaning ta’siri tavsiflab o‘tilgan.[1] Bu tadqiqotlarda shahar va qishloq aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy faravonligi,[2] uy-joylar qurilishi [3], aholining milliy daromadi, aholi hayotida maishiy xizmat ko‘rsatish tizimining rivojlanishi, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohasini rivojlanishi va bu jarayonlarning aholi kundalik va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta’siri, aholi hayotida tutgan o‘rni hamda kundalik hayotning ayrim ijtimoiy masalalari berib o‘tilgan. Sovet davrida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi masalalarini yoritishda asosiy e’tibor yutuqlarga qaratildi, ammo bazi muammolar mavjudligi qayd etildi.

Bu davr tarixshunosligida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi tadqiqot obekti bo‘lgan yirik ilmiy nashrlar mavjud bo‘lsada, mavzuni bazi jihatlarini ishchilar sinfi tarixiga bag‘ishlangan ishlarda o‘z aksini topgan edi. 1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab yaratilgan tadqiqotlarda maishiy xizmat ko‘rsatish sohasiga ham to‘xtala boshlangan. 1960-yillardan boshlab O‘zbekistondagi shu bilan birgalikda Xorazm viloyatidagi mazkur yo‘nalishda bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, R. Jumaniyozov, A. Xazratqulov, S. Rajabov, A. Nosirov, kabi olimlarning ilmiy asarlarida qisman ma‘lum bir hududga yoki qisqa davrga oid maishiy xizmat ko‘rsatish holati yoritilgan. [4] Tadqiqotchi S. Rajabov o‘zining “Повышение материального благосостояния и культурного уровня колхозного крестьянства Узбекистана в условиях развитого социализма (На материалах Хорезмской области 1966-1980 гг.)” nomli ilmiy ishida 1966-1980-yillarda Xorazm viloyati materiallari asosida, maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalarining sonini yil sayin oshib borganligini, jumladan, 1970-1973-yillarda bunday muassasalar soni 12 foizga oshganini qayd etgan. Shu bilan birgalikda 1965-yillarda maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini asosan poyabzallarni, kiyimlarni ta‘mirlash, va yakka tartibda tikish hamda sartaroshxonalar tashkil qilgan bo‘lsa, 1970-1980-yillarda ijara punktlari, kir yuvish punktlari, maishiy uskunalarni radio, televizorlarni sozlash, uy-joylarni ta‘mirlash kabi ustaxonalar xisobiga rivojlanganini aytib o‘tgan. [5]

Tadqiqotchi R. Jumaniyozovning “Хорезм краткий очерк политической и социально-экономической истории 1920-1990 гг.” ilmiy ishi Xorazm viloyatining XX asr davomida kechgan siyosiy, ijtimoiy, va iqtisodiy jarayonlarini tizimli o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, viloyat tarixini kompleks yondashuv asosida tahlil qilgan eng muhim ilmiy ishlardan biridir. Muallif ishida 1920-1990-yillarni bosqichma-bosqich yoritib, sovet tuzumining o‘zgarishlari, ijtimoiy qatlamlar tarkibidagi siljishlar hamda qishloq xo‘jaligi va sanoatning rivojlanish jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ayniqsa, Xorazm viloyatida aholining ijtimoiy hayoti va kundalik turmush tarziga ta‘sir ko‘rsatgan omillarni-iqtisodiy islohotlar, kollektivlashtirish, urbanizatsiya, maorif, sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil qiladi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda masalalarning ayrim jihatlarini cheklangan holda yoritilgan. Xususan, siyosiy tazyiqlar, milliy qadriyatlarining siqib chiqarilishi va ijtimoiy tengsizlik masalalari chuqur yoritilmagan. Shunga qaramay, dissertatsiya o‘z davrining manbashunoslik imkoniyatlari doirasida yuqori ilmiy darajada bajarilgan bo‘lib, asosiy tarixshunoslik manbalaridan biri hisoblanadi.

Sovet davrida qishloq xo‘jaligidagi kadrlar masalalari haqida tadqiqotchi Bekmetov Erkinbayning “Подготовка колхозных кадров Узбекистана в период развитого социализма (1959-1970 гг)” (на материалах Хорезмской области) nomli ilmiy ishida kengroq ma‘lumotlar olishimiz mumkin. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston SSR da xususan, Xorazm viloyatida kolxoz kadrlarini tayyorlash jarayoni, ularning ijtimoiy-siyosiy shakllanishi va mehnat madaniyatining o‘ssishi yoritilgan. Tadqiqotda Xorazm viloyati materiallari alohida o‘rganilgan bo‘lib, aholining mehnat an‘analari va ishlab chiqarish tuzilmasini tahlil qiladi. Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishida 1960-1970-yillarda Xorazmda tashkil

qilingan qishloq xo‘jaligi texnikumlari, mehanizatorlar tayyorlash kurslari hamda malaka oshirish markazlari faoliyatini batafsil ko‘rsatib beradi. Muallif ta‘kidlashicha, bu jarayon kolxozlarda mehnat unumdorligini oshirish, ishchi kuchining malakasini yuksaltirish hamda aholi ijtimoiy ongini o‘stirishga xizmat qilgan. Tadqiqotda keltirilgan ma‘lumotlar Xorazm viloyati aholisining mehnat hayoti, madaniy-ma‘rifiy faolligi, ijtimoiy ongining o‘sishi kabi jarayonlarni yoritishda muhim tarixshunoslik va manbashunoslik asosini tashkil etadi.

Sovet davrida yaratilgan “Узбекистон колхоз ва совхозлари тарихи .XVIII китоб.” [6]nomli ko‘p jildli nashr o‘z davrida mamlakatning agrar tarixini , kolxoz va sovxoz tizimining shakllanishini hamda qishloq aholisi hayotidagi o‘zgarishlarni yoritishga bag‘ishlangan yirik tarixiy to‘plamdir. Ushbu asarning 18-jildida bevosita Xorazm viloyati Gurlan tumani kolxoz va sovxozlarining faoliyati, ularning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy taraqqiyot jarayonlarini o‘zida mujassam etgan. Mazkur to‘planning ilmiy ahamiyati shundaki, u Gurlan tumani misolida Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos rivojlanish modelini ko‘rsatib bergan. 1940-1980-yillar oralig‘ida viloyat agrar sohasida kechgan o‘zgarishlar-paxta yetishtirish hajmining ortishi, sug‘oriladigan yerlarning kengaytirilishi, mexanizatsiya jarayonining jadallashuvi – Gurlan kolxozlari misolida tahlil etilgan . Bundan tashqari yana paxtachilik brigadalarining tashkil etilishi, qishloq infratuzilmasining o‘sishi (maktab, klub, tibbiy punktlar ochilishi) kabi ma‘lumotlar keltirilgan.Tarixshunoslik nuqtai nazardan ushbu asar Gurlan tumanidagi kolxozlar hayoti orqali Xorazm viloyati aholisi turmush tarzining o‘zgarish dinamikasini, mehnatning ijtimoiy tuzilishini va madaniy hayotdagi o‘zgarishlarni aniqlashda ilmiy ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR. Shuningek, viloyat turar joylarini arxitekturaviy va etnografik jihatdan o‘rganilishida A. Н. Жилина, В. А. Лавров, Б.И.Вайнберг kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu olimlar tomonidan mazkur mavzu yuzasidan yozilgan asarlarda viloyat hududining turar joylaridagi sinfiy farqlar, uylarning alohida qismlari, bu qismlarning oilaviy hayot bilan bog‘liqligi kabi masalalar ham e‘tibordan chetda qoldirilmagan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlar shahsiy kuzatuvga asoslanganligi va noyob materiallarni mavjudligi bilan ham diqqatga sazovordir. Xorazm imoratsozligida foydalanilgan g‘ishtlarning turlari xususiyatlari, o‘lchamlari haqida И.И.Ишченко [7]asarida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.

Ikkinchi guruhdagi adabiyotlarga mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar kiradi. Bu davrda mavzuga oid ko‘pgina ilmiy ishlar chop etilgan. Masalan, oxirgi yillarda kundalik masalalarini tadqiq etish tarixi, tadqiqot usullari va metodologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar qilingan. R. Shamsutdinov, A. Mavrulov, O. Begmatovlarning tadqiqotlarida shahar va qishloq hududlaridagi ijtimoiy va iqtisodiy, madaniy jarayonlar yoritib o‘tilgan. D. Bobojonovanning tadqiqotida 1970-1980-yillarda O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar masalasiga oid bo‘lib, unda o‘zbek xalqining kundalik hayotiga oid ayrim jihatlar ham ochib berilgan. O. Komilov tadqiqotida esa shahar va qishloqlardagi ichimlik suvi muammolari yoritib berilgan.[8]Tadqiqotchi Nasirov B.ning “O‘zbekiston aholisining kundalik hayotida maishiy xizmat tizimining o‘rni (1925-1991-yillar)”[9]mavzusidagi ilmiy

ishi sovet davrida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasining shakllanishi va rivojlanishini aholining kundalik turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishi bilan ahamiyatlidir. Muallif mazkur tadqiqotida maishiy xizmat tizimining ijtimoiy vazifalari, uning aholi turmush darajasiga ta’siri hamda davlat ijtimoiy siyosatidagi o‘rni masalalarini ilmiy asosda yoritgan. Shu bilan birga, tadqiqotda hududiy xususiyatlar, xususan Xorazm viloyati misolida maishiy xizmat tizimining rivojlanish jarayonlari alohida va kompleks tarzda tahlil qilinmagan. Mazkur holat ushbu dissertatsiyada Xorazm viloyati doirasida ushbu sohaning rivojlanishini hududiy va ijtimoiy kesimda chuqurroq o‘rganish zaruratini asoslab beradi.

Xorazm viloyatining gazlashtirish bosqichlari va bu sohaning hududiy taraqqiyotidagi o‘rnini tadqiq etishda soha mutaxasisi Q.Xaitovning xizmatlari alohida e’tiborga loyiq. Uning “Xorazm gaz el xizmatida” [10] nomli asari bu boradagi xronologik ma’lumotlarni jamlagan qimmatli manba hisoblanadi. Muallif viloyat hududida dastlabki gazlashtirish ishlari 1963-yildan boshlanganini, dastlab sanoat korxonalari keyinchalik shahar va qishloqlarga tabiiy gazning yetib borgan va uning aholi kundalik turmush tarziga ijoboy ta’sir qilganliklarini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan o‘rgangan. Bu asar hududiy gaz sanoati tarixini tizimli ravishda bayon etgani uchun keyingi tadqiqotchilar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari Xorazm viloyatining sovet davri haqidagi ma’lumotlarini professor M. Matniyozovning “Xorazm tarixi” II jild,[11] O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi) XI jild [12] kitoblaridan ham olishimiz mumkin. Asosan M.Matniyozovning bu kitobi 1997-yilda nashrdan chiqqan bo‘lib, unda Xorazmning qadimgi davrlardan to XX asr oxirigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarni izchil tahlil qilingan. Muallif ishini yaratishda arxiv hujjatlari, mahalliy tarixiy manbalar, statistik to‘plamlar hamda o’sha davrda nashr etilgan ilmiy maqolalardan keng foydalanilgan. Bu esa kitobning ilmiy ishonchliligini oshirib, keyingi tadqiqotchilar uchun muhim asos yaratgan. Kitobda viloyat tarixiga faqat siyosiy jarayonlar nuqtayi nazaridan emas, balki ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jihatidan ham yondashilgan. Shu jihatdan, bu asar viloyat aholisining kundalik turmushi va ijtimoiy hayotini o‘rganishda beqiyos manba hisoblanadi. Tadqiqotchi Yusupov I. ning “O‘zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyot tarixi “[13] nomli dissertatsiyasida ham Xorazmda aloqa va axborot tizimining rivojlanishi haqida ko‘pgina ma’lumotlar keltirilgan. Muallif o‘z ishida XX asr davomida Xorazm viloyatida aloqa tizimining rivojlanishi, telefon va telegraf tarmoqlarining kengayishi, pochta aloqasining takomillashuvi, radio va televideniya xizmatlarining aholining ijtimoiy hayotida o‘rnini chuqur o‘rganadi. Muallif o‘z ishida arxiv materiallari, statistik to‘plamlardan, o’sha davr matbuot manbalaridan foydalangan, bu esa tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlab, uni ijtimoiy tarixni o‘rganishda ishonchli manba darajasiga ko‘targan.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, mazkur va boshqa ilmiy manbalar tahlili shundan dalolat beradiki, Xorazm viloyatining kundalik hayoti, ijtimoiy-madaniy muhit hamda xizmat sohaslarining shakllanishi, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohasiga oid masalalar avvalgi tadqiqotlarda qisman yoritilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi umumrespublika miqyosida olib borilgan. Shu bois, ushbu ilmiy ish mazkur yo‘nalishda

aynan Xorazm viloyati misolida tarixiy jarayonlarni tahlil etish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi. Tarixshunoslik tahlili natijalari kelgusida mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish uchun nazariy hamda metodologik zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. Джуманиязов Р. Социально-экономическому планированию на селе – партийную заботу. – Ташкент: Ўзбекистан, 1982. – 47 с.
2. Мулладжанов И.Р. Народо-население Ўзбекской ССР (Социально-экономический очерк).. – Ташкент: Ўзбекистан, 1967. – 232 С.
3. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар (Ўқув-методик кўлланма). -Андижон: “Andijon nashriyoti-matbaa” ОАЖ, 2004. – Б. 556-582.
4. Рахимов И. Становление коммунистической нравственности в быту. – Ташкент, 1965. – 235 с.
5. Ражабов С. Повышение материального благосостояния и культурного уровня колхозного крестьянства Ўзбекистана в условиях развитого социализма (На материалах Хорезмской областию 1966-1980 гг.) Дисс... канд. ист. Наук. – Ташкент, 1982. – С. 154.
6. Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи. Китоб 18. – Тошкент: Мехнат, 1980.
7. Ишченко И. Гишт-тош ишлари ва йигма конструкциялар монтажи. -Тошкент, Ўкитувчи, 1967. – Б. 12-17.
8. Комилов О.К. Ўзбекистонда ирригация тизими ривожланиши ва унинг окибатлари (1951-1990йй) : Тар.фан.док. ... дисс. – Тошкент, 2017. – 265 б.
9. Насиров Б. Ўзбекистон аҳолисининг кундалик ҳаётида маиший хизмат тизимининг ўрни (1925-1991-йиллар): Тар.фан.фалсафа док. (PhD)... дисс. афтореферати. – Тошкент, 2018. – Б. 14.
10. Qo‘chqorboy Xaitov. Xorazmgaz el xizmatida. “Xorazm” taxririya-nashr bo‘limi. 1993-yil, 8-b 11
11. М.Матниёзов. Хоразм тарихи. – Урганч: Хоразм, 1997. -Б.167.
12. O'zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). XI jild. -Toshkent: “O'zbekiston”, 2023. -B. 496.
13. Юсупов И. Ўзбекистонда алоқа тизимининг тараккиёти тарихи (Хоразм вилояти мисолида). – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2022. – Б. 37.